



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

|| 2021  
maxsus son

DJURAYEV Risbay  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.  
O'z MAA dan 2007 yil 3-yanvarda  
№ 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltirilganda  
«Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Sherzod SHERMATOV  
Uzoqboy BEGIMQULOV  
Alisher UMAROV  
Nargiza RAXMANQULOVA  
Xolboy IBRAGIMOV  
Shavkat QURBONOV  
Roxatoy SAFAROVA  
Islom ZOKIROV  
Dono G'ANIYEVA  
Lobar QARAXANOVA  
Dusmurod DJURAYEV*

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI  
Tel.: (71)-245-92-34  
(93)-503-52-07  
e-mail: uzluksitztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **S.T.Turg'unov**  
Uzluksiz ta'lrim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
- 9 **A.G.'Turg'unboyeva**  
O'smirlilik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakternig shakllanishi
- 13 **M.A.Maxsudova**  
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
- 17 **Z.B.Kurbanova**  
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lrim samaradorligi omili sifatida
- 21 **Yo.T.Djumanazarov**  
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
- 25 **S.Yu.Akbarov**  
Kattalarga ta'lrim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
- 28 **A.A.Xusanov**  
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lrim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
- 32 **D.D.Oriboyeva**  
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
- 36 **M.B.Badritdinova**  
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 40 **Z.O.Rahmatullayeva**  
Bolalarda emotsiunal intellektni shakllantirishning samarali omillari
- 44 **D.H.Ergasheva**  
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
- 48 **D.H.Ergasheva**  
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
- 52 **N.O.G'aniyeva**  
O'smirlilik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
- 56 **N.A.Vaxobova**  
Oilada bolani maktab ta'limga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
- 60 **I.P.Mansurova**  
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
- 64 **Sh.J.To'uchiyeva**  
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
- 68 **M.Abdullayeva, N.Abdullayeva**  
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
- 72 **M.Abdullayeva, D.Abdullayev**  
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
- 76 **Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova**  
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
- 80 **Sh.B.Tursunova**  
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
- 84 **Sh.B.Tursunova**  
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
- 88 **A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva**  
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
- 92 **G.Tulyaganova**  
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
- 96 **O.R.Nabiyeva**  
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
- 101 **M.N.Rustamova**  
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
- 104 **G.Sh.Tursunova**  
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
- 108 **A.N.Qurbanboyev**  
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
- 112 **D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova**  
Oliy ta'lrim muassasalari maktabgacha ta'lrim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK JARAYONLAR  
SAMARADORLIGINI TA'MINLASH**

**S.T.TURG'UNOV,**  
*NamDU rektori, p.f.d., professor*

*Maqola uzluksiz ta'lism tizimida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta'lism-tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlashning zaruratiga bag'ishlangan bo'lib, unda uzluksiz ta'lism jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish va boshqarishning amaliy ahamiyati ilmiy asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik jarayonlar; ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar; mashg'ulotlar; tadbirlar; tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari; pedagogik amaliyot; pedagogik tajriba-sinov jarayonlari; uzluksiz malaka oshirish jarayonlari; pedagogik tizim; tizimga xos xususiyatlar; ta'lism oluvchilar.

*Статья посвящена необходимости обеспечения эффективности учебно-воспитательных процессов различных форм организации в системе непрерывного образования, в которой научно обоснована практическая значимость организации и управления процессами непрерывного образования на основе системного подхода.*

**Ключевые слова:** педагогические процессы, духовно-просветительская деятельность, занятия, деятельность, процессы образовательных отношений, педагогическая практика, процессы проверки педагогического опыта, процессы непрерывного повышения квалификации, педагогическая система, системные особенности, педагоги.

*The article is devoted to the need to ensure the effectiveness of educational processes of various forms of organization in the system of continuing education, in which the practical significance of organizing and managing the processes of continuing education based on a systematic approach is scientifically substantiated.*

**Key words:** pedagogical processes, spiritual and educational activities, classes, activities, processes of educational relations, pedagogical practice, processes of checking pedagogical experience, processes of continuous professional development, pedagogical system, system features, teachers.


Uzluksiz ta'lism tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta'lism-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ko'zlangan natijalarga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri ta'lism oluvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan tushunchalarning o'zaro bog'liq tarzda o'rganilishini ta'minlashdan iborat. Shunday ekan uzluksiz ta'lism tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan ta'limiy jarayonlar ta'lism oluvchilarda zaruriy tushunchalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularda uzluksiz ta'lism keyingi bosqichiga qiziqishlar shakllantirishi zarur. Uzluksiz ta'lism tizimining turli bosqichlarida tashkil



etiladigan pedagogik jarayonlarning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan ta’lim texnologiyalarini tanlashda ham, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanishda ham ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlarning izchilligi, uzviyligi hamda maqsadi va mazmuniga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik amaliyat jarayonlari yaxlit, bir butun dinamik tizim ko’rinishida tasavvur qilinib loyihalashtirilishi davlat ta’lim standartlari talablarini bajarilishida izchillik va uzviylik tamoyillari asosida amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etishda uning komponentlari bo‘lgan turli shakllardagi mashg‘ulotlar, tadbirlar, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyat, pedagogik tajriba-sinov jarayonlari va uzluksiz malaka oshirish jarayonlarininining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minalash murakkab tizim hisoblanayotgan yaxlit tarzdagi uzluksiz ta’lim tizimi (pedagogik tizim) samaradorligini ta’minalashga xizmat qiladi (1-rasm).



1 -rasm. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tizimli yondashuv asosida tashkil etish va boshqarish loyihasi



Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda mazkur loyihibada (1-rasm) keltirilgan pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq etish zarur hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish orqali yaxlit tarzdagi samaradorlikka erishishda uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi:

- uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligini baholashda yaxlit tarzdagi samaradorlik, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligi murakkab pedagogik tizim hisoblangan hamda o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining natijaviyligi asosida ifodalanishi;

- uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi hamda uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligini ta’minlashga xizmat qilishi;

- uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;

- uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etuvchi ixtiyoriy komponenti samaradorligining o‘zgarishi yaxlit tarzdagi uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligiga ta’sir ko’rsatishi;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari komponentlari samaradorligi darajasi ko‘p jihatdan ta’lim oluvchilar faolligi va mustaqil ta’lim faoliyatiga bog‘liqligi;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida ta’lim oluvchi shaxsining rivojlanishiga tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari omillari ta’sirining muqarrarligi;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, ya’ni tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligi;



- murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida qayta aloqani ta’minalashning zaruriyati va uning o’ziga xos ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi;

-uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining protsessual tomoni, ya’ni to‘g’ri va qayta aloqa jarayonlarining ilmiy-amaliy ahamiyatini inobatga olishning zarurligi;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ta’lim oluvchilarda ta’lim olishga bo’lgan qiziqish, ya’ni ularda o’quv motivlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi motivatsion jarayonlarning pedagogik xususiyatlarini inobatga olishning zaruriyati;

- motivlashtirish jarayonlari samaradorligining murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar natijaviyligiga ta’siri;

- uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari samaradorligi pedagogik ahamiyat kasb etuvchi motivlashtirish jarayonlarining natijalarini ham ifodalashi;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida axborotlarning yangi va ishondoshli bo‘lish shartlari.

Demak, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o’zaro bog‘liqligi va aloqadorligi bo‘lib, u uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan nazariy va amaliy mashhg‘ulotlarni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o’zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minalash zaruriyatini belgilaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan dars va darsdan tashqari mashhg‘ulotlar, mustaqil ta’lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlari, shuningdek, pedagoglar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlari yaxlit tizimning komponentlari hisoblanadi. Tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o’zaro aloqadorligi va bog‘liqligi ularning o’ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, ixtiyoriy komponent samaradorligining o’zgarishi butun bir yaxlit tizimning samaradorligiga o‘z xukmini o‘tkazadi.



Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, mustaqil ta’lim hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik amaliyot jarayonlarini, shuningdek, pedagoglar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni tatbiq etishda ta’lim oluvchilarda shakllantiriladigan tushuncha va ko‘nikmalarlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra ma’lum bir izchillikda va o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi zarurligini inobatga olish zarur.

Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha shakllardagi mashg‘ulotlar jarayonlarida ta’lim oluvchilarda zaruriy tushuncha va ko‘nikmalarlarning shakllantirish samaradorligiga ta’lim oluvchilarning mustaqil olgan tushunchalari, tarbiyaviy munosabatlar hamda o‘zini-o‘zi tarbiya jarayonlari samaradorligi qay darajada ta’sir ko‘rsatsa, pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik amaliyot jarayonlari, shuningdek, pedagoglar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini samaradorligi ham undan kam bo‘lmagan darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim oluvchilar faolligi va shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ahamiyatlari ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish samaradorligi vaziyatlarga ko‘ra barcha bosqichlarda pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minalash uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zaruratini belgilaydi:

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini yaxlit holda, bir butun innovatsion tuzilishga ega bo‘lgan murakkab pedagogik tizim sifatida loyihalashtirish;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samradorligi ta’minalashda ularning tizimga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, murakkab pedagogik tizimga xos xususiyatlarni inobatga olish;

- uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ta’lim oluvchilarning o‘zaro munosabatlarini hamda o‘qituvchi va ta’lim oluvchi munosabatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida sub’ekt-sub’ekt munosabatlari shaklida amalga oshirish;

- uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich tushunchalari va o‘zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

- ta’lim oluvchilar faoliyatining tahliliyo yo‘nalishlarini, murakkab pedagogik



tizimni kontseptual va dasturiy boshqarish qonuniyatlarini pedagoglar tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlash;

- uzlusiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish faoliyatini oldindan modellashtirish hamda ta’lim oluvchilar faoliyatini aniqlashtirish va rejaliashtirish;

- uzlusiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida murakkab pedagogik tizim sifatida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiya hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ta’lim oluvchilar faolligini ta’minlash va mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, innovatsion yondashuvlarning natijalari bo‘yicha qayta aloqani ta’minlash;

- ta’lim oluvchilarining boshlang‘ich tushunchalari va tayyorgarlik darajasini aniqlash, mustaqil faoliyatga ularni oldindan tayyorlash va ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta’minlash;

- ta’lim oluvchilarining qiziqishi, ehtiyoji va o‘qish-o‘rganishga moyilligini aniqlash va motivlashtirish;

- uzlusiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tizimli yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish va ta’lim oluvchilarining mustaqil faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- uzlusiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida zaruriy axbortlarni to‘plash, ularni tahlil qilish va ob‘ektiv baholash asosida o‘zgaruvchan vaziyatlarga ko‘ra ta’lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
2. Turg‘unov S.T., Maksudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - Tashkent, Fan 2009. – 146 b.
3. Shodmonova Sh,S. Oliy o‘quv yurtlari talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2009. – 337 b.